



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aripov, M.Q., Karimov, F.X. O'zbekiston me'morchilik tarixi.– Toshkent: O'qituvchi, 1997.
2. Asqarov, A. O'zbek xalqining kelib chiqishi va davlatchilik tarixi. – Toshkent: SHarq, 2007.
3. Davlatov, S. Xorazmda shaharsozlik va me'morchilik an'analari. – Urganch: Xorazm, 2015.
4. Saloxitdinov, A. Xiva – tarix va me'morchilik yodgorliklari. – Toshkent: Fan, 1982.
5. Xorazm tarixi va madaniyati. To'plam. – Toshkent: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi nashriyoti, 2009.
6. UNESCO. The World Heritage List: Itchan Kala (Khiva, Uzbekistan). – Paris: UNESCO Publishing, 1983.
7. Jalilov, M. O'zbek me'morchiligi tarixi va uning rivojlanish bosqichlari. – T.: Universitet, 2010.
8. Xorazm arxeologiyasi va etnografiyasiga oid tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 1991.

XVIII-XIX ASRLARGA OID QORAQALPOG'ISTONDAGI "ICHAN QAL'A" MAJMUASI ME'MORCHILIGI

Imamov Quralbay Turganbaevich (O'zbekiston)

Toshkent arxitektura qurilish universiteti, tayanch doktoranti (PhD).

Annotatsiya

XVIII-XIX asrlarga oid Qoraqalpog'istondagi "Ishon-qal'a" me'moriy yodgorligining hozirgi holati, uning tarix va me'morchilikdagi o'rni, tasavvuf bilan bog'liq jihatlari. Ishon-qal'a yodgorligining o'z davrida bajargan vazifalari va hozirgi holati bilan tanishish.

Abstract

The current state of the Ishon-Kala architectural monument in Karakalpakstan, dating back to the 18th-19th centuries, its place in history and architecture, and

aspects related to Sufism. Familiarization with the functions performed by the Ishon-Kala monument in its time and its current state.

Аннотация

Современное состояние архитектурного памятника "Ишан-кала" в Каракалпакстане XVIII-XIX веков, его место в истории и архитектуре, аспекты, связанные с суфизмом. Ознакомление с функциями, которые выполнял памятник Ишон-кала в свое время, и его современным состоянием.

Kalit so'zlar

masjid, madrasa, turarjoy, me'morchilik, yodgorlik, ta'mirlash, sufiylik, paxsa, qo'rg'on, ziyorat turizmi.

Key words

mosque, madrasa, residence, architecture, monument, restoration, Sufism, pakhsa, fortress, pilgrimage tourism.

Ключевые слова

мечеть, медресе, жилье, архитектура, памятники, реставрация, суфизм, пахса, крепость, паломнический туризм.

Kirish

Qoraqalpog'istondagi antik davrdan boshlab ushbu kungacha, hududda turli tuman, har xil katta-yu kichik shaharlar va qalalar bo'lib, ular hozirgi kungacha ayrimlar yaxshi saqlanib qolgan, ayrimlar bizgacha yetib kelmagan. Ushbu hududda XVIII, XIX va XX asrlarda qurilgan, hozirgi kunda ham yaxshi saqlanib qolingan ko'plab qalalarni kuzatishimiz mumkin. XIX-XX asrlarda qurilgan sufiylikka oid bo'lgan masjid, madrasa, xonaqohlar, turarjoylar, juda ko'plab uchratishimiz mumkin. Qalalarning, masjid, madrasalarning va xonaqohlarning ayrimlari bizgacha yetib kelmaganlari ham mavjud, ularning tarixi, arxeologik jihatdan juda yaxshi o'rganilgan bo'lishi mumkin, lekin ularning me'morchiligi yaxshi o'rganilmagan. Qoraqalpog'istondagi XVIII-XX asrlarga ko'plab sufiylikka oid yodgorliklardan Qaraqum Ishon, Suyin Ishon, Abdikerim axun, Ayimbet Ishon, Qulamet axun madrasasi, Xan masjid, Tas madrasa, Abdiqodir eshon madrasasi, Abdukarim oxun madrasasi, Qirantaw, Ishon qala, Eshim axun, Abdixaliq ishan madrasasi va Nurulla axun madrasasi, Kulamet oxun madrasasi va boshqada ushbu asrlarda qurilgan

yodgorliklar mavjud bo'lib, ularning tarixi jihatdan yozma manbalar mavjud, lekin ularning me'morchilik jihatidan yaxshi o'rganilmagan.[7] Qoraqalpog'istondagi yuqorida aytilgan masjid, madrasalar, xonaqohlarning hammasi juda ahamiyatli vazifalarni oz vaqtida bajarib kelgan, shu kabi yirik yodgorliklar qatorida, **“Ishan qal’a”** me'moriy yodgorligi ham mavjud. Yodgorlik XVIII-XIX-asrlarda Kegeyli tumanida qurilgan, qurilishi jihatidan oddiy paxsa loydan qurilgan. Bu tarixiy obidada 1957-yili A. V. Gudkova va T.A.Jdanko tadqiqot ishlarini yurgizgan.[2] Ishan qala yodgorligining qurilishiga Ataulla ishonning yashagan yillarini ayrim mualliflar 1801-1877-yillar deb belgilaydi.[3] Tarixda ushbu inson haqida yozma manbalarni ayrim olimlarning maqolalarida va kitoblarida uchratishimiz mumkin.[7],[8]

Asosiy qism

Ishan qala me'moriy yodgorlikning qurilishi osha asrlardagi Xorazm va Buxora me'morchilik an'alarini o'zida mujassam etganni yaqqol namoyon etadi, bunga sabab XVIII-XIX asrlarda Qoraqalpoq yoshlarning osha shaharlarda diniy talim olib kelib kelganligi va boshqada katta-yu kichik sabablar bo'lgan. Ishon qal'aning saqlanib qolgan devorlari uning, Bugungi kunda **“Ishan qal’a”** majmua sifatida me'moriy majmua bo'lib, qal'a madrasalar va masjidlarni o'z ichiga olgan. Majmua keyinchalik shu atrofdagi qishloqqa kompozitsion va tuzilish jihatidan qo'shilib ketgan. Ilgari bu diniy uy-joy kompleksi bo'lgan bo'lib, bu joyda 50 yaqin o'g'il-qizlarga diniy talim berish imkoni bo'lgan. Yodgorlikning atrofida ilgari bog'lar bo'lgan, bog'lar ochiq va yopiq bog' bo'lgan, ya'ni devorlar bilan o'ralgan bo'lgan bolishi mumkin.[5]

Ushbu majmuaning asosiy obyektlari juda katta maydonni egallaydi. **“Ishan-qal’a”** baland va qalin qal'a devorlar bilan o'ralgan. Imoratlar poydevori yog'ochlar ustiga qamishlar qatlami to'shalgan, va bu asos vazifasini bajargan, undan tashqari devorlari yuqorida aytilgani singari loy va somon qorishmali paxsadan, eski texnologiyalar asosida qurilgan. Ishan qalaning qurilishi ham joylashub kabi o'z navbatida devorlarning mustahkamligini ta'minlagan. Qal'a burchaklari obida

devorlaridan biroz ko'tarilgan guldastalarga ega. "Guldastalar" asosan obida devorlar mustahkamligini ta'minlashga mo'ljallangan. Qal'a darvozasi devorlarga qaraganda biroz balandroq bo'lib, uning ustki qismi yuzasi uyma naqshlar bilan bezatilgan va qalaning ishki intereriga Unda turli xil geometrik, o'simliksimon va baliq to'rlariga o'xshash chiziqlarni o'yilgan. Naqshlarning ko'rinishi jihatdan osha asrlardagi milliylikni o'zida mujassam etgan bolishi haqiqatga yaqin keladi, shunga o'xshash bo'lgan osha asllarda qurilgan yodgorliklarda shunga o'xshash naqshlarni, darvoz oldlilarida ko'rishimiz mumkin. [7]

Qal'a poydevorlarida teshiklar ular yomg'ir suvlarini tashqariga oqib chiqishini maxsus keramika ta'minlagan, ularga qumdonlarda pishirilgan turbalar o'rnatilgan. Qalaning juda murakkab shakli, tarhi o'z davrida ko'plab odamlar yashaganligiga misol bo'ladi. Qal'aning qo'rg'on devor bilan o'ralgan qismining o'lchami 68x35 m. Qo'rg'onning shimoliy-sharqiy burchagida rejada 25x9 m zina tarzli kam joyi bor. Qo'rg'onning faqat bir darvozasi bo'lib, u shimol tomonda bo'lgan. Asosiy darvozdan tashqari odamlarning kirish, chiqishiga qulay qilib kichik eshiklar bo'lgan. Asosiy darvoznig eni 4 metr, balandligi 3,7 m. Buning ichida 15 dan ortiq hujralar bor.

Qo'rg'on devorning shu vaqtdagi boshqa qo'rg'onlardan tafovuti buning ustida soqchilar yuradigan maydonchasi va o'q otadigan teshiklari bo'lmagan. Devorning balandligi 5,6 m va to'qqiz qator paxsadan iborat. [7]

Qala darvozasining shakli va ko'rinishlari Xorazm, Buxoro shaharlarda qurilgan yodgorliklarning darvozalariga o'xshash qilib qurilgan.[4]

Qal'a ichkarisida va tashqi devorlarga tutashib ketgan turarjoy uylar bo'lib, ulardan ayrimlarining ichida hozirgi kunda qabrlar joylashgan. Qal'a masjidining yonida ikki gumbazli madrasa mavjud bo'lgan va hozirda ulardan biri yaxshi saqlanib qolingan. Qal'a ichida katta-kichik hujralar juda ko'p bo'lib, bu hujralarda talabalar yashagan yoki bo'lmasa masjidga kelgan aholining yashashi uchun qurilgan bo'lishi yoki boshqa maqsadlarda qurilgan bo'lishi ehtimoli jihatdan juda yaqin. Qala asosiy qurilishning maqsadlaridan biri Xorazm va Buxorda tahsil olgan talabalarning

ko'pchiligi ozi qishloqlariga qaytgandan so'ng, qishloqlarida maktablar yaratgan. Ishon qala sufiylik maskanlarining XIX asrning 70-yillarida Ishon-qal'a Otag'ulla-Ishon tomonidan qurilgan. Eshon (Ishan)-qal'a savdo markazi bo'lgan va bundan tashqari, yoshlar bu yerda masjid va madrasada ta'lim olgan.

Madrasa qarshisida baland masjid bo'lib,[5] tosh asoslarda o'yilgan yog'och ustunlar bilan bezatilgan. Masjid hozirgi kunda ham ziyoratchilar uchun faoliyat ko'rsatmoqda. Ishan qal'a devorlari boyi dekorativ bezaklari yog'och ustunlari bilan, e'tiborni tortadi. Xalq orasida qal'a bilan bog'liq turli xalq hikoya va afsonalar mavjud. Qal'a "Ishon" qishlog'i aholisi tomonidan bunyod etilgan bo'lgan. Ishon qal'a yodgorligi "Qangli" qabilasiga mansub Eshan Atagullaga tegishli bo'lgan. Ishan qal'a O'zining tarhi, kompozitsion yechimi bilan atrofidagi masjid, madrasa imoratlari bilan hamohang bo'lgan. Ishon qal'a majmusi XX-asrning boshida turli tarixiy hodisalar ta'sirida tashlab ketilgan. Bugungi kunda "Ishan-Qal'a" Qoraqalpog'istonning muhim tarixiy obidalaridan biri bo'lib, sayyohlikning muhim yo'nalishi bolib kelmoqta. Ishan qal'ani ta'mirlash va kelajak avlod ushun xizmat qilishini ta'minlash bizlarning zimmamizga yotadi.[8] Yodgorlik hozirgi kunda qarovsiz ahvolga kelib qolgan, buning natijasida ushbu obidalarining ko'pchilik qismi yomg'ir suvidan va qorlardan boshqada odamlar tomonidan etkizilgan tasirlardan juda katta zarar etkazilgan. Yodgorlikning tarixda turarjoy bo'lgan qismi mavjud bo'lib, ushbu joylar hozirda buzilib qulab qolgan, ushbu joylarga mahalliy aholi tumandan mozorga aylantirib yuborilgan. Yodgorlining ko'pchilik qismi hozirda mozorga aylantirib yuborilgan, ayrim qismlaridagi devorlar qulaganligi hisobiga obidaning atroflari achinarli ahvolga kelib qolgan.[2]



Ishon qala kompleksining tepadan ko‘rinishi. K. Imamov fotosi, 2019

Xulosa

Tarixi yodgorliklarimiz hozirgi kundagi holatini o‘rganib ularni ta’mirlanishga muhtoj bo‘lgan yodgorliklarni qayta ta’mirlash, loyihalarini qayta ishlab chiqish kerak. Yodgorliklarning hozirgi holatini yaxshi saqlab qolish maqsadida chuqurroq o‘rganib saqlab qolish masalalarini ko‘rishimiz zarur. Obida o‘rganilib, ular ustida ilmiy loyihalarini qayta va qayta ishlab mamlakatimizga kelayotgan sayyohlarni oziga jalb qildirishimiz zarur deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Пайноерг Б.И. Туркменские поселения по дарья лыку // журнал номи, Нукус, 1957.
2. Usenov E. Ishan qala // G‘ayri jurttag‘i qaraqalpaqlar. Nókis 1992,
3. Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1957 году
4. Nayimov Q., G. Xojaniyazov Imam ishan-qaraqalpaq xalqining ulli ulamasi ham ag‘artiwshi tulg‘asi. Nókis, 2005
5. Хожаниязов Г., Ҳакимниязов Ж., Пайзуллаева Ш. Бердақ дэўириндеги қорған-қалалар. – Нөкис, 2015. – Б. 22.
6. Юсупов О.Ж. Жана-кала Вестник ККФАНУзССР Нөкис, 1983, -Б. 80
7. Карлибаэв М.А. “Эл арасинан табилган эски хужжетлер” Вестник ККФАНУзССР Нөкис, 1997, - Б. 100

8. Usenov S. Iyshan qala qamali. // Muğallim hám uzliksiz bilimlendiriw. Ilmiy metodikaliq jurnal. Nókis , 2013
9. <https://lex.uz/acts/-25461>

XIVA HUKMDORLARINING UYI (163 XONALI TOSH SAROY)

Radjapov Bekzod Jumanazarovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura” kafedrası
o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston xududida madaniy meroslarni asrash, xususan Xorazm viloyati Xiva shaxrida bir emas, bir nechta xon saroylari hamon mavjud. Ana shulardan biri-mashhur Toshhovli saroyidir. 163 xonali saroyining arxitekturaviy qiyofasi va majmuaviy shakillanishi bilan bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Анотация

В данной статье сохранение культурного наследия на территории Узбекистана, в частности, в городе Хива Хорезмской области до сих пор существует не один, а несколько ханских дворцов. Один из них-знаменитый Дворец Ташховли. Показана связь с архитектурным обликом и комплексным формированием 163-комнатного дворца.

Abstract

In this article, the preservation of cultural heritage on the territory of Uzbekistan, in particular, in the city of Khiva, Khorezm region, there are still not one, but several Khan palaces. One of them is the famous Tashhovli Palace. The connection with the architectural appearance and complex formation of the 163-room palace is shown.

Kalit so‘zlar

tarix, shaharsozlik, Xiva, saroy, yodgorlik, loyiha va qurilish an‘analari,

Ключевые слова

история, градостроительство, Хива, Дворец, памятник, проектирование и строительные традиции.

Key words